

Abdullayeva Hilola Ravshanovna

*M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik ,
uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti
"Meva, rezavor mevalar seleksiyasi va nav o'rganish"
bo'lim boshlig'i, katta ilmiy xodim, q.x.f.d
E-mail: hilola.abdullayeva@mail.ru*

Temirova Gulira'no Baxtiyor qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ekologiya fakulteti Ekologik monitoring
kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti
E-mail: guliranotemirova1026@gmail.com*

Aytbayeva Dilfuza Rustamboy qizi

*M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik ,
uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot
instituti 1-kurs tayanch doktoranti
E-mail: dilfuzaaytbayeva2@gmail.com*

Annotatsiya *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prezidentining bir qancha qarorlari, tibbiyotdagi ahamiyati, dorivorligi haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari qorag'at navlarining bir nechta xususiyatlari keltirib o'tilgan.*

Аннотация *В данной статье представлена информация о некоторых решениях Президента Республики Узбекистан, их значении в медицине и лечебных свойствах. Кроме того, упоминаются некоторые характеристики сортов черной смородины.*

Abstract *This article provides information about several decisions of the President of the Republic of Uzbekistan, their importance in medicine, and medicinal properties. In addition, several characteristics of blackcurrant varieties are mentioned.*

Kalit so'zlar: *Ribes L, qorag'at, rezavor, vitamin, mineral, kurtak, meva, gul, nav, Plotnomyasaya, Valentina.*

Ключевые слова: *Ribes L, смородина, сорт, ягода, витамин, минерал, бутон, плод, цветок, Плотномьясая, Валентина.*

Key words: *Ribes L, currant, berry, vitamin, mineral, bud, fruit, flower, Plotnomyasaya, Valentina.*

Hozirgi kunda yurtimizda xar bir sohaga alohida e'tibor qaratilib, sohalardagi kamchiliklar va rivojlantirish bo'yicha turli xil tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, respublikamizda oziq-ovqat, dehqonchilik, sabzavotchilik va mevachilik sohalarida xam so'ngi yillarda sezalarli darajada o'zgarishlar muhtaram prezidentimiz tashabbuslariga ko'ra olib borilmoqda. Misol tariqasida meva va sabzavotchilik sohasiga taaluqli bo'lgan qarorlarini keltirishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 martdagi «O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4246-son qarorida: "Meva-sabzavotchilik, uzumchilik mahsulotlarini saqlash, saralash, qayta ishlash va eksportini

tashkil etish, shuningdek, ushbu sohalarda «daladan rastagacha» tamoyili asosida qoʻshilgan qiymat zanjirini yaratuvchi meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiyalar) faoliyatini rivojlantirish" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-yanvardagi PQ-52-sonli "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra meva-sabzavotchilik sohasida mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, xizmat ko'rsatish va sotish (eksport qilish) jarayonlarini o'zaro integratsiya qilish, klasterlar (kooperatsiya) faoliyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport hajmini oshirish maqsadida: meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi, saqlovchi va eksport qiluvchilarga - yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilishga talab etiladigan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun yillik 14 foiz (shundan 2 foizi bank marjasi) stavkada 12 oylik «revolver» kredit ajratiladi. Bunda, ushbu kredit hisobidan klaster va kooperatsiyalarning tijorat banklaridan olingan boshqa kreditlarini so'ndirishga yo'l qo'yilmasligi va meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiyalar) va fermer xo'jaliklariga - eksport shartnomasi mavjud bo'lib, meva-sabzavot hosilini xavf-xatardan sug'urtalash xizmatidan foydalanganda to'langan sug'urta mukofotining 50 foizi, biroq sug'urta pulining 1 foizdan ortiq bo'lmagan qismi qoplab beriladi. Bunda, sug'urta puli xavf-xatardan sug'urta qilinayotgan hosil qiymatining 70 foizidan kam bo'lishi mumkin emas; meva-sabzavotchilik klasterlariga (kooperatsiyalarga) - xorijdan malakali agronom, entomolog, laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizi, biroq bir oyga 1 nafar mutaxassis uchun 1 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan qismi Qishloq xo'jaligi vazirligining tuman bo'limlari orqali kompensatsiya qilinadi. Bunda, meva-sabzavotchilik klasterlariga o'ziga biriktirilgan mahsulot yetishtiruvchilar uchun bog' va tokzorlarni barpo etish, sabzavot, kartoshka, poliz, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish tavsiya etilishiga asosan yurtimizda meva-sabzavotchilikka bo'lgan talab va ehtiyojning yanada oshishiga va ularni eksport qilish, ko'paytirish ishlarini nazoratga olish kerakligini bildiradi.[1.2] Mevachilik yo'nalishida rezavor mevalar alohida o'rin tutadi. Rezavor mevalar o'zining dorivorligi, shifobaxshligi va o'zgacha ta'mi bilan boshqa mevalardan ajralib turadi. Rezavor mevalarga qulupnay, qorag'at (smarodina), malina, krijovnik kiradi. Bular orasida qorag'atning axamiyati juda kata. Oltinsimon qorag'at mevalarida A, V1 V2, V6, V9, K, RR vitaminlari, kumarinlar, furokumarinlar, azotli va dubil moddalari, efir moylari, temir, magniy, rux, bor, kaliy tuzlari mavjud. Quruq moddalar 12 dan 23 % gacha, ularda qandlar 10 - 14 % tashkil etadi. S vitaminining ko'p miqdori mevalar, barglar, kurtaklar va navdalarda mavjud. Oltinsimon qorag'atda 200 dan 400 mg/100 g gacha vitamin S mavjud, u esa R-faol birikmalar bilan uyg'unlikda yurak-qon tomir kasalliklarida, yuqori miqdordagi nurlanishlarda shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi. Chiroyli gullarga ega oltinsimon qorag'at butalari asalarilarni jalb etadi, bu bilan yaxshi asal tashuvchi hisoblanadi. Oltinsimon qorag'at (Ribes aureum Pursh) tezpishar, mevalari katta, urug'i mayda, pektinga boy va jele yasovchi xususiyatga ega. Mevalar yetilganida uzoq vaqt to'kilmay turadi.[3]

Quyida bir nechta qorag'at navlarining xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Plotnomyasaya navi- Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan. Tupi kuchli o'sadigan butaning shoxlari unchalik tarvaqaylab ketmaydi. Bir yillik novdalari jigarrang, O'zbekistanskaya krupnoplodnaya navidan ko'ra sal to'qroq, ko'p yillik novdalari esa

kulrang, egilmagan. O'rtacha kattalikdagi barglari 3 yoki 5 bo'lakli bo'lib, to'q yashil, yaltiroq, cheti o'tkir, qirrali tish. Bandi qizg'ish, egilgan. Kurtaklari o'rtacha kattalikda, ingichka uchlari o'tkir. Gullari limon-sariq rangda. Gullash paytida gulpoyasi qizil rangga kiradi. Mevasi yumaloq shaklda bo'lib, to'q binafsha rangli. Meva shingili g'uj-g'uj bo'lib, har bir boshda 7-8 tagacha meva bo'ladi, bandi qattiq. Dastlabki mevalari yirik (4 gr) , o'rtacha og'irligi 1.7 gr ni tashkil qiladi. Mevasining eti O'zbekistanskaya krupnoplodnaya navidan ko'ra kattaroq bo'lib, ko'kimtir-sarg'ish tomirchalari bor, yeganda qarsillaydi. Sentyabrning boshlarida to'q qizil va qizil rangli burglar bilan qoplanib, chiroyli manzara kasb etadi. Plotnomyasaya o'rtapishar navlar guruhiga kiradi. O'z-o'zidan o'rtacha changlanadi, gulining 20 % meva to'kkanda ancha yuqori xosildorlikni ta'minlaydi. Ya'ni har tupidan 4 kg dan 10 kg gacha meva terib olsa bo'ladi. Mevasi iyunning ikkinchi o'n kunligida pisha boshlaydi, avgustgacham to'kilmastan turishi mumkin. Xosilni terib olish 25-30 kun davom etadi. Tup bir joyda 15-20 yilgacha o'sib xosil beradi. Ekilgandan so'ng ikkinchi yilga xosilga kiradi. To'rtinchi yilga kelib har bir tupdan ancha yuqori xosil olinadi.(19-25 kg). Mevasining tarkibida 9.05 % qand, 1.42 % kislotalar, 79.76 % suv, 0.735 % kul, 1.705 % pektin, 60.61-124.8 mg% C vitamin, 0.73 mg% A provitamini mavjud.

Plotnomyasaya navida sentyabr oyining boshida ikkilamchi gullash ham kuzatiladi. Bunda faqat mevasi pishib yetilmaydi.[4.63-bet]



Valentina- nav Lisovenko nomli Sibir bog'dorchilik institutida yaratilgan. Nav o'rtapishar bo'lib, 20 martda gullay boshlaydi. Tuplari baland o'suvchi, barglari yashil, 3 bo'lakli, silliq. Barg chetlari dumaloqroq, o'tmas burchak. Mevasi to'q qora rangda, urug'lari mayda. Bir dona mevasining massasi 1.2 g, eng yirigi 2-3 g nav serxosil bo'lib, universal, qayta ishlashga yaroqli nav.



Podarok Ariadne- nav Lisoenko nomli Sibir bog'dorchilik institutida yaratilgan. Nav o'rtapishar, tuplari baland o'suvchi. Barglari o'rta yashil, 3 bo'lakli, silliq. Barg chetlari dumaloq, o'tmas burchak. Mevalari to'q qora, yaltiroq, dumaloq. Urug'lari mayda, och jigarrang rangda. Ta'mi nordon-shirin. Bir tupi 5-6 kg xosil beradi. Nav universal.[5.70-71-bet]



Muhabbat- S.I.Yagudinaning O'zbekiston krupnolodnaya navli seleksiya ekinlaridan seleksiya yo'li bilan yetishtirilgan. Buta kuchli, o'rta yoyilgan. Bir yillik novdalari to'q jigarrang, o'sgan. Ko'p yillik novdalari kulrang. Barglari katta, uch yoki besh qirrali, to'q yashil, yorqin. Bargning asosi deyarli tekis, barg plastinkasining tishlari katta va to'mtoq. Bandi o'rta uzunlikdagi, to'q qizil rangli, zich tukli. Kurtaklari o'rtacha kattalikda, to'q jigarrang. Meva kurtaklari yillik novdalarda va bir yillik shoxlarida hosil bo'ladi. Gullari katta, sariq. Urug'chisi sariq-yashil, changchidan uzunroq. Mevalar dumaloq, qora. Bir **to'dada** 4-5 ta rezavorlar mavjud. Popugining uzunligi 2,5-4,5 sm, birinchi rezavorlar juda katta, 4 g gacha. O'rtacha og'irligi 1,9 g, diametri 18x16 mm. Naychada mevalar yig'iladi va qurigandan so'ng tushadi. Meva eti jigarrang-sariq, suvli, terisi o'rtacha qalinlikda. O'sish davri mart oyining boshida boshlanadi va noyabr oyining o'rtalarida tugaydi. Yillik o'sishining oxiri - sentyabrning o'rtalarida, sug'orish va yomg'irli kuz sentyabr oyining oxiri. Barg rangining kuzgi o'zgarishi sentyabr oyining boshlarida, noyabr oyining o'rtalarida barglarning tushishi qayd etiladi. Muhabbat o'rtapishar navlar guruhiga kiradi. U aprel oyining boshidan oxirgi o'n kunligigacha gullaydi. Gullash yoshi kattaroq bo'lgan kurtaklar bilan boshlanadi va keyinroq gullar o'tgan yilgi kurtaklar ustida gullaydi. Gullashning davomiyligi 26 kun. O'z-o'zini changlatish paytida gullagan rezavor nisbatan zaifdir. Asalarilar tashrif buyurganda va yaqin atrofga boshqa nav ekilganida, u ko'payadi. Ochiq changlanishli boshqa navlar mavjud bo'lganda o'rnatish darajasi 15-17% ni tashkil qiladi, bu esa yuqori hosilni ta'minlaydi. Mevalar iyun oyining o'rtalarida pishib yeta boshlaydi. Meva

berish muddati 34 kun. Mevalar kuzgacha uzoq vaqt davomida tushmasdan osilib turishi mumkin. Meva berish davridagi hosillar soni 2-3 dona. Mevalar ko'chiriladi va shirin va nordon ta'mga ega. Meva ekishdan keyingi ikkinchi yilda boshlanadi. Butaning meva berish dinamikasi, birinchi yil - 0,300, ikkinchisi - 2,1, uchinchisi - 3,2 kg. Mevalarda shakar - 8,90%, kislota - 1,7, suv - 83,03, S vitamini - 124,24 mg%, provitamin A - 1,24 mg% mavjud.[6]



Xulosa qilib aytish mumkinki, oltinsimon qorag'at o'zining tezpisharligi, serxosilligi, tibbiyotda va tabobatda qo'llanilishi va dorivorligi va o'zgacha ta'mi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, qorag'at navlarinig O'zbekiston iqlim sharoitiga moslasha olishi va tuproq iqlim sharoitlariga aloxida talabchanligi ham bu o'simlikning aloxida ahamiyatga ega ekanligini bildiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. PQ-4246-son. "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Prezident Qarori.-Toshkent, 2019 yil, 20 mart.
2. PQ-52-sonli "Meva-sabzavotchili sohasinidavlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Qarori. – Toshkent, 2021 yil 15 yanvar.
3. Pavlova N.M. - Smarodina. L.,Selxoziz. 1931. – 165 s
4. R.M.Abdullayev, H.R.Abdullayev Rezavor mevali o'simliklar. Toshkent-2020-b.
5. Yu.B.Saimnazarov, R.M.Abdullayev, H.R.Abdullayeva, Q.S.Sultonov "Mevachilik" o'quv qo'llanma., Toshkent 2021-yil.
6. Yagudina S.I. - Smarodina. Tashkent. Izd-vo "Fan" 1976. – 120 s
7. <https://dissercat.uz>
8. <http://kiberlelinka.com.ru/Ribes> L.
9. <http://www.wikipedia.com.ru>
10. <http://www.plantlist.com>